

O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH, TENGDOSHLAR BAHOSI VA O‘QITUVCHI BAHOLASHNING AKADEMIK YOZUVDAGI O‘RNI VA O‘ZARO BOG‘LIQLIGI.

Feruza Akbarovna Ramazonova , dotsent v.b,

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

 [orcid:0009-0003-2641-5319](https://orcid.org/0009-0003-2641-5319)

e-mail: feruzaramazonova@yandex.ru

Abstrakt: Ushbu maqolada akademik yozuv jarayonida o‘z-o‘zini, tengdoshlar va o‘qituvchi baholashning o‘zaro bog‘liqligi, ularning pedagogik funksiyalari va ishonchliligi tahlil qilinadi. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchining metakognitiv xabardorligi va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi; tengdoshlar baholashi esa ijtimoiy o‘rganishni kuchaytirib, talabalarga turli yozuv uslublari bilan tanishish imkonini beradi; o‘qituvchi baholashi esa ekspertlik yondashuvini saqlagan holda akademik standartlarga mos, ishonchli tahliliy fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Maqolada ushbu uch baholash turini integratsiyalash akademik yozuvni o‘qitishda adolatli, refleksiv va rivojlantiruvchi baholash tizimini shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Abstract: This article analyzes the interrelationship, pedagogical functions, and reliability of self-assessment, peer assessment, and teacher assessment within the academic writing process. Self-assessment develops students' metacognitive awareness and critical thinking skills; peer assessment strengthens social learning and allows students to become acquainted with diverse writing styles; and teacher assessment provides reliable analytical feedback aligned with academic standards, while maintaining an expert perspective. The paper asserts that the integration of these three assessment modalities serves to establish an equitable, reflective, and developmental evaluation system in the teaching of academic writing.

Аннотация: В данной статье анализируются взаимосвязь, педагогические функции и надежность самооценки, оценки сверстников и

оценки преподавателя в процессе академического письма. Самооценка развивает у студентов межпредметную осведомленность (метакогнитивные навыки) и критическое мышление; оценка сверстников усиливает социальное обучение и позволяет студентам ознакомиться с различными стилями письма; а оценка преподавателя предоставляет надежную аналитическую обратную связь, соответствующую академическим стандартам, сохраняя при этом экспертную точку зрения. В статье утверждается, что интеграция этих трех видов оценки служит формированию справедливой, рефлексивной и развивающей системы оценивания в обучении академическому письму.

Kalit soʻzlar: refleksiv, oʻz- oʻzini baholash, tengdoshlar baholashi, holistik va analitik, metakognitiv koʻnikmalar

Key words: Reflektive, self-assessment, peer-assessment, holistic and analitic, metacognitive skills

Ключевые слова: Рефлексивный, самооценкаб оценка сверстникамиб холистический и аналитический, метакогнитивные навыки (или умения)

Kirish

Akademik yozuvdagi baholash anʼanaviy oʻqituvchi markazli modeldan chiqib, koʻproq hamkorlikka va refleksiv yondashuvlarga asoslangan shaklga oʻtgan. Oʻz-oʻzini baholash talabalar tomonidan oʻz yozma ishlarini belgilangan mezonlar yoki rubrikalar asosida baholashni anglatadi, bu esa ularning metakognitiv xabardorligi va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantiradi. Tengdoshlar baholashi talabalarni bir-birining ishlarini koʻrib chiqish va fikr bildirish jarayoniga jalb etadi, bu hamkorlikdagi oʻrganishni ragʻbatlantiradi hamda talabalarni turli yozuv uslublari va nuqtayi nazarlar bilan tanishtiradi. Oʻqituvchi baholashi esa eng anʼanaviy usul boʻlib, u oʻqituvchining mutaxassislik tajribasi va pedagogik bilimlariga asoslanib, ishonchli baholash va batafsil tahliliy fikr-mulohazalar taqdim etadi. Ushbu uch xil baholash shakli yozuv jarayonida turli maqsadlarga xizmat qiladi: oʻz-oʻzini baholash oʻquvchining mustaqilligini va refleksiya

ko'nikmalarini rivojlantiradi; tengdoshlar baholashi ijtimoiy o'rganish va ko'p qirralilik imkonini yaratadi; o'qituvchi baholashi esa ekspert yo'nalishdagi rahbarlikni ta'minlab, akademik standartlarning saqlanishini kafolatlaydi.

Ko'p hollarda, ushbu baholash turlarining integratsiyasi akademik yozuvni o'qitish jarayonida tobora keng qo'llanilmoqda, chunki har bir yondashuv talaba o'rganish jarayoniga va yozuv rivojiga o'ziga xos tarzda hissa qo'shadi.

Turli baholash turlari o'rtasidagi korrelyatsiyani o'rganuvchi tadqiqotlar turlicha darajadagi moslik natijalarini ko'rsatadi. Ma'lum sharoitlarda talabalar o'z ishlarini ham, tengdoshlarining ishlarini ham yetarlicha aniqlik bilan baholash qobiliyatini namoyon etadilar, hatto ular oldindan baholash tajribasiga ega bo'lmasalar ham. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tengdoshlar bahosi ko'pincha o'qituvchi bahosi bilan yuqori darajada mos keladi, va ayrim tadqiqotlarda yetarli tayyorgarlikdan o'tgan talabalar ekspert baholovchilarga xos baholash xatti-harakatlarini namoyish etishlari aniqlangan.

Ushbu uch baholash turining integratsiyasi xorijiy ta'lim muhitida keng tarqalgan, chunki har biri o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, o'quv jarayonining turli jihatlarini qamrab oladi va yozuv rivojlanishining muhim tomonlarini yoritadi.

Turli baholash turlari o'rtasidagi moslik darajasi kontekst va amalga oshirish sharoitlariga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Ba'zi tadqiqotlar natijasiga ko'ra, tengdoshlar bahosi o'qituvchi bahosi bilan nisbatan yaqinlikni ko'rsatgan, faqat ayrim hollarda talabalar o'qituvchilarga qaraganda biroz yuqoriroq ball qo'ygan. Boshqa tadqiqotlar esa murakkabroq natijalarni bildiradi: ba'zi hollarda o'z-o'zini baholash o'qituvchi bahosi bilan izchillik ko'rsatgan bo'lsa, tengdoshlar baholashi ham o'z-o'zini, ham o'qituvchi baholashiga nisbatan pastroq muvofiqlikni namoyon etgan.

An'anaviy baholash usullariga muqobil yondashuvlar orasida so'nggi yillarda o'z-o'zini va tengdoshlar baholashga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Bunga o'quvchi mustaqilligi va avtonomiyasiga tobora kuchayib borayotgan e'tibor

sabab bo'lmoqda [9]. Bundan tashqari, o'z-o'zini va tengdoshlar baholash usullari sezilarli pedagogik ahamiyatga ega deb qaralmoqda. Brown va Hudsonning ta'kidlashicha, o'z-o'zini baholash dars jarayonida kamroq vaqt talab etadi [2]. Shuningdek, bu jarayonda talabalar faol ishtirok etadilar, va bu holatning o'zi ham o'quvchining mustaqilligini va ichki motivatsiyasini oshiradi [4]. Topping ham o'z-o'zini va tengdoshlar baholashni kognitiv jihatdan murakkab jarayon sifatida e'tirof etadi, chunki bu turdagi baholash o'quvchilardan ongli o'z-o'zini so'roq qilish, refleksiya, o'z o'qish jarayonini boshqarish, shaxsiy mas'uliyatni his etish, o'ziga ishonch (self-efficacy) va metakognitiv ko'nikmalarni talab qiladi hamda ularni rivojlantiradi [10].

Shu qadar ko'p ilmiy asos va amaliy dalillarga ega bo'lishiga qaramay, o'z-o'zini va tengdoshlar baholash ta'lim muassasalarida, ayniqsa til o'qitish sohasida, hali ham keng qo'llanilmayapti. Buning sababi sifatida o'qituvchilarning o'quvchilarning o'zlarini ob'yektiv va aniq baholay olish qobiliyatiga bo'lgan ishonchsizligi keltiriladi [7]. O'z-o'zini va tengdoshlar baholashning ishonchligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari ham o'qituvchilar va ma'muriyat orasida ma'lum darajadagi ikkilanishni keltirib chiqargan, chunki bu tadqiqotlarning xulosalari bir-biriga zid natijalarni ko'rsatgan [8]. Biroq, shuni e'tiborda tutish kerakki, o'z-o'zini va tengdoshlar baholashdagi ishonchsizlikning aksariyat sabablari ularni amalga oshirish jarayonidagi uslubiy kamchiliklar bilan bog'liq. Shu bois, natijalarni buzib ko'rsatishi mumkin bo'lgan aralashuvchi omillarni nazorat qilish orqali yanada ishonchli natijalarga erishish mumkin.

O'z-o'zini va tengdoshlar baholashga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, baholashdagi noaniqlik va sub'yektivlikni yuzaga keltiruvchi bir qator omillar mavjud. Masalan, Blanche keng qamrovli adabiyot tahlilidan kelib chiqib, talabalarning o'z-o'zini baholashdagi aniqligi ularning til ko'nikmalari darajasi va baholashda foydalanilgan materiallarga bog'liq ekanini ta'kidlagan. Bundan tashqari, yuqori darajadagi til bilimiga ega bo'lgan talabalar o'zlarini pastroq

baholashga moyil bo'lishadi [1, P. 75-96]. O'tgan o'quv tajribasi, kelajakdagi kasbiy maqsadlar, tengdoshlar, guruh yoki ota-onalar kutgan natijalari hamda o'z-o'zini baholash bo'yicha yetarli tayyorgarlikning yo'qligi talabaning sub'yektiv baholashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, Davidson va Henning [3], Blanche (1988), Janssen-van Dieten [6] hamda Heilenmann [5] o'z tadqiqotlarida til bilim darajasi talabalarning o'z-o'zini baholashdagi aniqligiga ta'sir qiluvchi muhim omil ekanini aniqlaganlar.

Biroq, Brown va Hudsonning fikricha, "bu muammolarning ayrimlarini bartaraf etish mumkin, agar talabalarga o'zlarini baholashda foydalaniladigan tavsiflar aniq til vaziyatlariga va baholanayotgan aniq xatti-harakatlarga asoslangan holda ifodalanadigan bo'lsa" [2, p. 84]. Bundan tashqari, o'z-o'zini (va tabiiyki, tengdoshlar) baholashi bo'yicha treninglar o'tkazish baholashning ishonchliligini oshirish nuqtai nazaridan ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalarga tayanilgan holda, agar o'quvchilarga maxsus tayyorgarlik va amaliy mashg'ulotlar taqdim etilsa, ular ham ekspert-baholovchilarga xos baholash xatti-harakatlarini namoyon eta olishlari mumkin degan gipoteza ilgari surilgan.

Baholash xatti-harakati (rating behavior) bir qator o'zgaruvchilar orqali tavsiflanadi, jumladan: baholashdagi ortiqcha yoki kam baholash (ya'ni, qat'iylik va yumshoqlik) tufayli yuzaga keladigan tafovutlar; turli ko'nikmalarni baholashdagi farqlar; bir ko'nikmaning turli tarkibiy qismlarini baholashdagi tafovutlar; baholovchilar (yoki talabalar) o'rtasidagi va ularning o'z ichidagi moslik va ishonchlilik darajasi; baholash usuli tanloviga (masalan, holistik yoki analitik baholash) bog'liq o'zgaruvchanlik; hamda holistik va analitik baholashdagi ichki ishonchlilik (intra-reliability).

Maqolada akademik yozuvda qo'llaniladigan o'z-o'zini, tengdoshlar va o'qituvchi baholash tizimlarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning ta'lim jarayonidagi o'rni keng yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini

baholash o'quvchilarning o'z o'qish jarayoniga refleksiv yondashuvini shakllantiradi, tengdoshlar baholashi esa o'zaro o'rganish va fikr almashish orqali akademik yozuv sifatini oshiradi. O'qituvchi baholashi esa yakuniy ekspert nazoratini ta'minlab, baholash jarayonining adolatli va akademik standartlarga mos bo'lishini kafolatlaydi. Biroq, baholashning har bir turi o'ziga xos cheklovlarga ega: o'z-o'zini baholashda sub'yektivlik, tengdoshlar bahosida tajriba yetishmasligi, o'qituvchi bahosida esa biryoqlamalik xavfi mavjud. Shu bois, maqolada ushbu uch yondashuvni integratsiyalashgan shaklda qo'llash eng samarali natijani berishi ta'kidlanadi. Integratsiyalashgan baholash modeli talabalarning mustaqil o'rganishini rag'batlantiradi, baholashning ishonchliligini oshiradi hamda o'qituvchining baholash yukini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blanche, P. (1988). Self-assessment of foreign language skills: Implications for teachers and researchers. *RELC Journal*, 19(1), 75-96.
2. Brown, J.D., & Hudson, T. (2002). *Criterion-referenced language testing*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Davidson, F., & Henning, G. (1985). A self-rating scale of English proficiency: Rasch scalar analysis of items and rating categories. *Language Testing*, 2(2), 79-164.
4. Harris, M. (1997). Self-assessment of language learning in formal settings. *ELT Journal*, 51(1), 12-20.
5. Heilenmann, K.L. (1990). Self-assessment of second language ability: The role of response effects. *Language Testing*, 7(2), 174-201.
6. Janssen-van Dielen, A. (1989). The development of a test of Dutch as a second language: The validity of self-assessments by inexperienced subjects. *Language Testing*, 6(1), 30-46.
7. Oscarson, M. (1989). Self-assessment of language proficiency: Rationale and implications. *Language Testing*, 6(1), 1-13.

8. Patri, M. (2002). The influence of peer feedback on self-and peer assessment of oral skills. *Language Testing*, 19(2), 109-131.
9. Sambell, K., McDowell, L., & Sambell, A. (2006). Supporting diverse students: Developing learner autonomy via assessment. In C. Bryan, & K. Clegg (Eds.), *Innovative assessment in higher education* (pp. 158-168). New York: Routledge.
10. Topping, K. (2003). Self and peer assessment in school and university: Reliability, validity and utility. In M. Segers, F. Dochy, & E. Cascallar (Eds.), *Optimizing new modes of assessment: In search of qualities and standards* (pp. 55-87). Dordrecht: Kluwer Academic Publishers.

